

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda kekxa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251
	SIYOSAT
K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270
	ТАРИХ
Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

JAMIYAT BARQARORLIGIDA KONSOLIDATTSIYA JARAYONINING KONTSEPTUAL ASOSLARI**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА КОНСОЛИДАЦИИ СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА****CONCEPTUAL BASIS OF CONSOLIDATION PROCESS IN SOCIETY STABILITY**

Xayrullayev Sirojiddin Axmadullo o'g'li¹
¹Fargona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarni holisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida keng ko'lamli hisoblandi, balki amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini namoyon qiluvchi omillarni hisobga olish ham kerakligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan. "Milliy taraqqiyot", "jamiyatni yuksalishi", "jamiyatni transformatsiyalashuvi", "jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalashuv jarayoni"ni va shu bilan birga "jamiyatning kolsolidattsiyalashuvi" singari ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimli tadqiq etilgan.

Аннотация

В данной статье на новом этапе развития общества объективное решение проблем, связанных с вопросами национального развития, широко рассматривалось не только как важный принцип государственной политики, но и раскрывалось с социальной точки зрения. -философская точка зрения, согласно которой необходимо учитывать факторы, показывающие эффективность реализуемых реформ. Систематически изучаются такие социально-философские взгляды, как «национальное развитие», «подъём общества», «преобразование общества», «процесс модернизации государственного управления» и одновременно «консолидация общества».

Abstract

In this article, at the new stage of the development of the society, the objective solution of the problems related to the issues of national development was widely considered not only as an important principle of the state policy, but also it was revealed from a socio-philosophical point of view that it is necessary to take into account the factors that show the effectiveness of the implemented reforms. Socio-philosophical views such as "national development", "upliftment of society", "transformation of society", "process of modernization of public administration" and at the same time "consolidation of society" have been systematically studied.

Kalit so'zlar: Jamiyat, barqarorlik, konsolidatsiya, ijtimoiy konsolidatsiya, an'anaviylik, xalq, adolat, islohot, o'zgarishlar, birdamlik.

Ключевые слова: Общество, стабильность, консолидация, социальная консолидация, традиционализм, народ, справедливость, реформа, перемены, солидарность.

Key words: Society, stability, consolidation, social consolidation, traditionalism, people, justice, reform, change, solidarity.

KIRISH

Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ta'kidlanganidek, "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi"[1.7.], bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlash bevosita jamiyatning kolsolidattsiya jarayonining qay darajada qabul qilinishiga bog'liqdir. Ta'kidlash lozimki, jamiyat taraqqiyoti bosqichida siyosiy ijtimoiy-madaniy tuzumning o'zgarishi avlodlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashtiradi. Bu qarama-qarshiliklarga sababchisi konsolidatsiya jarayonidir. Tadqiqotchi olimlar fikricha, "Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir mamlakatda modernizatsiyalash jarayoni jamiyatning ustuvor sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada, jamiyatda an'anaviylikdan voz kechish, eskilik qoldiqlariga barham berish va evolyutsion ijobiy o'zgarishlarning transformatsiyalashuv jarayonlari kechadi" [2.14.]. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy hayotning quyidagi jabhalarini kolsolidattsiyalashuviga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'arb olimlari R.Darendrof va A.Kozer "Haqiqiy barqarorlik yo'q, har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik oldidan tin olish davri" [3.41.], degan fikrni ilgari surganlar. Bundan farqli tarzda T.Parsons "ijtimoiy tizimning barqarorligi qoidalari"ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, "Har qanday

FALSAFA

barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir". Jamiyat barqarorligi bevosita jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida "Harakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi"dagi ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar jamiyat taraqqiyotining konsolidatsiyasini namoyon etadi. Shu bilan birga mamlakatni jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgani, xalqning jahondagi rivojlangan millatlar qatoridan joy olishga intilishi, moddiy – iqtisodiy omillar, yuksak texnologiyalar bilan bir qatorda, ma'naviy omillarni rivojlantirishni ham taqozo etayotganligi bilan bog'liqdir.

Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari, jumladan, Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi, mas'ul va mutasaddi rahbarlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi hisobotlari, sayyor qabullar, ijtimoiy muammolarni, odamlarning yashash sharoitlarini bevosita joylarga chiqib o'rganish kabi usullar keng qo'llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali jamiyat taraqqiyotining konsolidatsiya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlari va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish kontseptsiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Inson manfaatlari xamma narsadan ulug'", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat–qonun ustuvorligida", "Ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi!", "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash–odamiylikning eng oliy mezonidir" singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Bu esa xalq irodasini barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

"Konsolidatsiya" barcha sohalarda keng ishlatiladi. Jumladan, iqtisodiyotda - o'sish yoki pasayishdan keyin birja kursini barqarorlashtirish ma'nosida, tibbiyotda - bu sinishni davolash jarayoni (suyak kallusining shakllanishi), huquqda - normativ hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi sifatida foydalaniladi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi "konsolidatsiya" (lotincha con - birga, solido - mustahkamlash) - biror narsani (shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, harakatlar) mustahkamlash, birlashtirish degan ma'noni anglatadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra V.V.Lokosova va V.P. Shultsning "konsolidatsiya" atamasini ikkita asosiy semantik tarkibni samarali birlashtiradi, deb hisoblashadi. Ular bugungi kunda ijtimoiy voqelikni tavsiflash va tushuntirishga makro-ob'ektiv va mikro-sub'ektiv yondashuvlarni sintez qilishga urinishlarning mohiyatini tashkil etadi. U ijtimoiy tizimning turli tuzilmalarining ob'ektiv integratsiyalashuvi va harakat qiluvchi odamlarning kundalik hayotida sub'ektiv birdamligi qadriyatlarini birlashtiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, konsolidatsiya hodisasini o'rganish ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, uni turli asoslarda va turli ijtimoiy fanlar maktablari tomonidan o'rganiladigan murakkab, ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan ko'p bosqichli muammo sifatida qarash mumkin"[4.168.].

Ijtimoiy nazariya klassiklarining yondashuvlarida konsolidatsiya (ijtimoiy birdamlik) mavzusi ijtimoiy falsafadagi "an'anaviy" va "klassik" mavzulardan biri bo'lib o'rganilgan. Chunki u ijtimoiy borliqda konsolidatsiya butunlik mavjudligining asoslari haqida fundamental jarayondir. Ushbu masalani u yoki bu tarzda ko'rib chiqmasdan va hal qilmasdan, keyingi barcha mavzularni ko'tarish qiyin. Avgust Kontning qarashlariga ko'ra, "ijtimoiy birdamlik, asosan, inson mehnatining har xil turlarini doimiy taqsimlash orqali yaratiladi". Jamiyatning birdamlik holatini shakllantirish va ta'minlashda Kont birinchi navbatda, birlamchi ijtimoiy guruh - oilaga katta rol beradi. Mehnat taqsimoti, birdamlik muammosiga analitik nuqtai nazar sifatida, boshqa klassik - Emil Dyurkgeymning yondashuvi asosida yotadi. Uning qarashlariga ko'ra, "bu jarayonni yanada ixtisoslashtirish nafaqat mehnat unumdorligini oshirishga, balki ijtimoiy munosabatlarning asoslarini o'zgartirishga olib keladi, bu esa ijtimoiy birdamlik xarakterini o'zgartiradi. Ushbu o'zgarishni tasvirlash uchun Dyurkgeym mexanik birdamlikdan organikaga o'tishning yangicha sxemasini yaratadi, bu erda birinchisi "an'anaviy" jamiyatning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning barcha xususiyatlari (yopiqlik, arxaik fikrlash, mehnatning past tabaqalanishi va boshqalar), ikkinchidan esa "zamonaviy" jamiyatga xosdir (oldingi holatining ko'pgina fazilatlarini yengib o'tgan)"[5.101.]. Olim, shuningdek, an'anaviy jamiyatda qabul qilingan birdamlik asoslarini buzganlik uchun jazolash

choralarining odatiy og'irligini, birinchi navbatda, an'anaviy jamiyatda birdamlikning ijtimoiy-madaniy manbalari to'liq o'rganilmagan.

Ijtimoiy konsolidatsiya har qanday jamiyatning vujudga kelishi va mavjudligining zaruriy shartlaridan biridir. To'g'rirog'i, atrof-muhitga moslashish, iqtisodiy amaliyot, xalq va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar, ichki va tashqi xavfsizlik va boshqalar kabi boshqa omillar ham yakuniy samaradorlikda jamoalar va jamiyatning birlashish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotida bu hamjihatlik yoki birodarlik, mahalladoshlar va vatandoshlarga bo'lgan g'amxo'rlik jamiyatning barcha asosiy sohalarida muvaffaqiyatli ijtimoiy takror ishlab chiqarishning kalitidir. Shunga ko'ra, jamoatchilik munosabatlarining hamjihatligini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash vazifasi davlat siyosatida ham, mahalliy hamjamiyat tashabbuslarida ham asosiy vazifalardan biri bo'lib qolishi mumkin emas. Yangilanish jarayonlari va tendentsiyalariga qarshi turish har qanday jamiyat uchun mutlaqo tabiiy va odatiy holdir, u odatda o'z hayotiy imkoniyatlarini kamaytirish uchun emas, balki oshirish uchun hamma narsani qilishi kerak. Ehtimol, ushbu vazifani amalga oshirishda eng muhim rolni ijtimoiy-madaniy omillar o'ynaydi – bunda jamiyatning yangilanishi uning integratsiyasi va mustahkamlanishi uchun javobgardir. Aynan ijtimoiy-madaniy sohalarida, jumladan, ta'lim, din, san'at, sivilizatsiya, ijtimoiy identifikatsiyalar majmuasi va boshqalarda ijtimoiy birlikning eng mustahkam poydevori qo'yiladi, chunki bu yerda jamiyatning yagona birligi saqlab qolinishi kerak. O'tmish, hozirgi va qisman kelajak qadriyatlar va me'yorlardan, dunyo va inson haqidagi g'oyalardan, sivilizatsiya, makon, xotira va o'ziga xosliklar yaratiladi va saqlanadi. Jamiyat uchun boshqa barcha ijtimoiy sohalarini har tomonlama rivojlantirish sharti bo'lgan ushbu jarayonning yaxlitligini saqlashdan muhimroq vazifa yo'qdir.

Yangilanayotgan jamiyatining konsolidatsiyasi ko'p vaqt davomida xavotirli holatda bo'ladi. Darhaqiqat, ichki jamiyat doimiy ravishda parchalanish yoqasidagi muvozanatda bo'lib, uning tahdidi "qayta qurish"dir. Bunda nafaqat hududiy integratsiya, balki semantik jarayonlar, mamlakatning ijtimoiy-madaniy makoniga tubdan putur yetishi kabi xavflar ostida bo'ladi. Umumiy o'ziga xosliklar, umumiy madaniyat, umumiy mafkura va hatto umumiy tarix yo'q qilinadi, bu esa dunyoning umumiy idrokiga va umuman ijtimoiy konsensus holatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ijtimoiy entropiyaning boshlangan jarayonlari o'zining salbiy dinamikasini saqlab qolishi natijasida bu avlodlar uzluksizligi, me'yoriy-qadriyat majmuasining izchilligi, ta'lim jarayoni va ijtimoiylashuvning mazmunli jihatlarining izchilligini buzilishi, tarixiy xotiraning yaxlitligi muammolarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jamiyat, har qanday tirik mavjudot singari, tizim o'zining dekonstruktsiya jarayonlariga qarshi kurashish vositalarini ishlab chiqishga yordam bera olmaydi, shu jumladan, ijtimoiy-madaniy soha resurslaridan foydalanadi. Bunda yangilanayotgan jamiyat bu borada ham ehtiyotkor optimizm uchun ba'zi asoslar beradi. Garchi konsolidatsiya va parchalanish jarayonlari oldindan belgilanmagan bo'lsada, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kuchlarning muvozanatini nazorat qilish lozim.

Shu munosabat bilan jamiyatning tanlangan ijtimoiy-madaniy sohalarini parchalanish xavfi va ijtimoiy konsolidatsiya uchun manbalar sifatida o'rganish juda dolzarb bo'lib ijtimoiy falsafada yangi amaliyotni talab etadi. Ijtimoiy konsolidatsiya mavzusi ijtimoiy falsafa va umuman ijtimoiy fan uchun an'anaviy bo'lib, shu bilan birga o'zining doimiy dolzarbligini saqlab qoladi. Ijtimoiy fanning klassik davrida ijtimoiy birdamlik muammosini O.Kont ko'targan bo'lib, uni mehnat taqsimotining cheksiz jarayonining natijasi sifatida qabul qilgan E.Dyurkgeym ham xuddi shunday fikrda bo'lgan. Jamiyat birdamligi o'zining funksional ixtisoslashuvining kuchayishi bilan bog'liq jarayonlar keyinroq tadqiqot manbaiga aylangan. Ijtimoiy birdamlikning kelib chiqishini ijtimoiy harakat asoslari nazariyasi kontekstida tahlil qilgan M.Veber yoki birdamlikni allaqachon shartlangan insonning elementar biologik instinktlari deb hisoblagan A.Bergson qarashlari uni yanada rivojlantirdi.

Faylasuf olim G.J.Blumer "ijtimoiy konsolidatsiyani (birdamlik), birinchidan, ijtimoiy tuzilmada ob'ektivlashgan ijtimoiy tuzilmaning determinizmi natijasi sifatida, ikkinchidan, cheksiz kundalik o'zaro ta'sirlar ekanligiga e'tiborni qaratgan"[6.]. P. Burdening e'tiroficha "Ijtimoiy konsolidatsiya mexanizmlarini yaratish tanqidiy nazariya doirasida ijtimoiy konsolidatsiyani shakllantirish"[7.681.] haqidagi qarashlarida asoslanadi.

J.Xabermas fikricha, "jamiyatdagi birdamlik, bir tomondan, o'zaro xarakterdagi kommunikativ harakat uchun asos bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mehnat va kapital mavjud bo'lmagan jamiyatda ijtimoiy totuvlik tamoyillarini amalga oshirish imkoniyati sifatida xizmat qiladi"[8.84.]. J.Aleksandr esa jamiyat yuz beraligan konsolidatsiyasi jarayonini "ijtimoiy davlat"

FALSAFA

tomonidan belgilanadigan, bashorat qilinadigan sharoitlardan uzoqroq bo'lgan holat ekanligini ta'kidlab, "Sinfy ong ishlamay qolgan zamonaviy "postjamiyat" voqeliklarda konsolidatsiyaning ijtimoiy resurslari fuqarolik jamiyati salohiyatini faollashtirishda yotadi" [9.3.], deb hisoblagan edi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Jamiyatning konsolidatsiyalashuvi qadriyatlarni funksional tuzilishiga ham ta'sir etmoqda. Jumladan, "Odamlarning ehtiyojlaridan kelib chiqadigan manfaatlari odatda tanqis resurslarga qaratiladi va bu resurslar uchun kurashda, shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. Aksincha, madaniyat kabi qadriyatlarning asosiy vazifasi ijtimoiy muhitni o'zgartirishga, umuman olganda, jamiyatda konsensusni shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ularning turli xil madaniy turlari bilan bog'liq afzal qilingan va rad etilgan qadriyatlarning to'qnashuvi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy nizolar bilan birga bo'lishi ham mumkin" [10.19.]. Buning uchun o'zgarayotgan jamiyat yangilanishi va yangi bosqichga ko'tarilayotganlik nuqtai nazaridan "Yangi O'zbekistonni o'z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko'lamli islohotlarimizning asosiy maqsadi"[11.202.] qilib olinmoqda.

Ijtimoiy konsolidatsiyaning mumkin bo'lgan mafkurasi asoslarini shakllantirishda faylasuf olim N.I.Lapinning mazkur mavzuga oid qarashlarini hisobga olish kerak. Unga ko'ra asosiy "birinchidan, jamiyatni saqlash yoki omon qolish qadriyatlari (va ushbu maqsadni amalga oshirishga yordam beradigan tegishli amaliyotlar, shu jumladan o'zaro yordam, zo'ravonlik qilmaslik, hayotga hurmat) va ikkinchidan, insoniy fazilatlarni rivojlantirish qadriyatlari (jumladan qadr-qimmat, qobiliyat, erkinlik va huquqlar)ni shakllantirish orqali haqiqiy insonparvarlik tushunchasini namoyon etadi"[12.]. Bunda, muallif bilishning umumiy ilmiy metodologiyasiga tayanib, tahliliy va fanlararo usullardan foydalangan.

XULOSA

Jamiyatdagi o'zgarishlarning yangi bosqichlari mavjud davlatchilikni yanada shakllanishiga, uning siyosiy makonini kengayishiga va rivojlanishiga ta'sir etadi. Bu jarayonda yuzaga keladigan murakkab qarama-qarshiliklarni tushunish va hal qilishni va turli ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy manfaatlar va segmentlarni ifodalovchi turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirish uchun shart-sharoitlarni zudlik bilan (gohida tadrijiy ravishda) o'zgartirishga talab qiladi. Zamonaviylashib borayotgan hozirgi jamiyatda davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabat avvalgi davrdan farq qiladigan yangi munosabatlarni paydo qilmoqda. O'z navbatida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga qarashlarning plyuralizmi shakllanmoqda, ijtimoiy, ma'naviy qadriyatlar va ko'rsatmalar o'zgarimoqda. Jamiyatning hamjihatligi davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va uning gullab-yashnashining zarur sharti sifatida tobora ko'proq qabul qilinmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr.-Toshkent: "O'zbekiston". 2023.
2. Amonov B. A. Jamiyatni modernizatsiyalash kontseptual modellarining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2019.
3. Darendorf R. Современный социальный конфликт: очерк политики свободы. М., 2002.
4. Lokosov V.V., Shults V.P. Osnovaniya konsolidatsii obshchestva (Sotsiologicheskiiye aspekti). M.: RITS ISPI RN, 2008.
5. Dyurkgeym, E. O razdelenii obshchestvennogo truda / E. Dyurkgeym. - M.: Kanon, 1996.
6. Blumer H. Industrialization as an agent of social change / Ed. by D.R. Maines and T.J. Morrione. - N.Y.: Aldine de Gruiter, 1990.
7. Bourdieu P. (1968) Structuralism and the Theory of Sociological Knowledge // Social Research. №4 (Winter).
8. Xabermas Yu. Moralnoye soznaniye i kommunikativnoye deystviye / Yu. Xabermas. - SPb.: Nauka, 2000.
9. Aleksander, Dj. Prochnyye utopii i grajdanskiy remont / Dj. Aleksander // Sotsiologicheskiiye issledovaniya. - 2002. - № 10.
10. Globalizatsiya i sotsialnyye instituty. Sotsiologicheskiiy podxod. M.: Nauka, 2010.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2022.
12. Lapin N.I. Krizis sivilizatsii i gumanisticheskaya modernizatsiya //Institut filosofii RAN.